

AYRITOM YODGORLIGIDAGI RASMLAR VA TASVIRLAR TARIXIY MANBA SIFATIDA

Doyimova Durdona Bahodirovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi

Ayritom Termiz shahridan 18 km uzoqlikda, Amurdaryo qirg'og'ida joylashgan qadimiy shahar bo'lib, u 1932 yilda aniqlangan. Bu yerda olib borilgan qazish ishlari jarayonida turli xaykal va frizlar topilgan. Ularda chiltor, qo'shnay, ud, nog'ora chalib turgan ayollar va erkaklar tasvirlangan. Bu frizlar ishlanish uslubi va kompozitsiyasi jihatidan Shimoliy Hindiston haykataroshligiga juda o'xshab ketadi. Bu hol I-II asrlarda budda dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi bilan izohlanadi. Ular o'zining badiiyligi jihatidan nihoyatda yuqoridir.

1937 yilda M.I.Vyazmitina Ko'xna Ayritom yodgorligida olib borgan qazish ishlari natijasida qiziqarli moddiy manbalar bilan bir qatorda ko'plab tasviriy san'at namunalarini ham topishga muvaffaq bo'ldi¹.

1938 yilda Ayritomdan I—II asrlarga oid buddaviylar ibodatxonasi ham topilgan. U yerda maxsus hujralar, budda haykali ham bo'lgan. Yuqorida qayd qilingan bo'rtma tasviriy frizlar shu ibodatxonalarni bezagan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Ayritomdan topilgan toshdan ishlangan releflar va so'nggi qushon davlati memorligining harobalari bu yerda buddizm keng yoyila boshlaganligini ko'rsatadi. Ayritomdagi ibodatxonaga kiraverish tomonga karniz tarzida ishlangan friz karnizlarda akant barglari orasida yarim belgacha tasvirlangan qo'shnay, nog'ora (baraban), lyutna va arfa chalayotganlar sozandalar tasvirlangan (ular 14 ta) bo'lgan².

Ayritom yodgorligiga xarobalari o'rganilayotgan dastlabki davrda bu yerdagi topilmalar xronologik jihatdan «kadingi davr», «Baktriya gashtlari», «ellinistik davr», «islomgacha davr» tarzida saralanib kelingan bulsa-da, yodgorlik sanasiga keyingi davr tadqiqotlari aniqlik kiritdi. Ammo dastlabki tadqiqotlar Ayritomiing moddiy madaniyatini o'rganish va izoxlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi³.

Dastlabki qazishmalar jarayonida tadqiqotchilar memorchilik qurilish uslublari, inshootlarning rejaviy tuzilishi, qurilish ashyolari, ularning sifati va tarkibiga katta e'tibor qaratdilar. M.Vyazmitina tadqiqotlari natijalariga ko'ra, baland tepalikdagi peshtoqida tasvirli tosh hoshiyasi bo'lgan ibodatxona inshooti nisbatan qadimiyroq davrga oid bo'lib, u yerdagi ustunlar ostidan topilgan turfburchak sopol qoplamalarni M.YE.Masson «Baktriya gashtlari» deb atagan. Atrofida butun ibodatxona inshootlarini mujassamlashtirgan ibodatxona markazi aftidan Xindistondan kelgan qaysidir Buddha jamoasi a'zolari tomonidan bunyod etilgan. Bino peshtoqidagi tasvirlarning diqqatni tortadigan tomoni shundaki, tasvirlarning alohida qismlari uziga xos xususiyatlarga ega. Bu hol ularni bunyod etishda turli ustalar ishtirok etganligidan dalolat beradi. Undan tashqari, peshtoqning airim qismlari turli davrlarda yoki ta'mirlash jarayonida bunyod etilgan degan fikrlar xam bor. Peshtoqdagi musiqachilar tasvirlangan arafa nisbatan yaxshi saqlangan va badiiyligi kuchli. Qolganlari nisbatan qo'polroq bo'lib, tasvirlari xam sermazmun emas⁴.

Umuman olganda, tasvirlari va tuzilishiga ko'ra, peshtoq manzaralari ellinizm namunalarini eslatadi. Peshtoqdagi musiqachilar boy qimmatbaho taqinchoqlar bilan tasvirlangan. Ular orasidagi uzun shokilali sirg'alar, qo'shmarjon, jevaklar, bilaguzuklar, tillaqoshlar, yelkadan oshirib tashlangan diniy buynnbog'lar - bularning barchasi hind kiyim-kechak an'analari xosdir. Shu bilan birga uzun va qisqa yengli raqqosalar kiyimi va bosh bilan butun gavgani yopib turgan keng kamzullar rim kiyim-kechak

¹ Вязьмитина М.И. Раскопки на городище Айртам // Тр. ТАКЭ. -Т., 1945. -Т. П. С.23-34.

² Пугаченкова Г., Ремпель Л., История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. - М.: Искусство, 1965. С.76-77.

³ Пугаченкова А., Ртвеладзе Э.В., Северная Бактрия - Тохаристан, Очерки истории и культуры. - Т.: Фан, 1990.С.94.

⁴ Вязьмитина М.И. Раскопки на городище Айртам // Тр. ТАКЭ. -Т., 1945. -Т. П. С.23-34.

an'analarini eslatadi⁵.

Peshtoqda tasvirlangan musiqa asboblarning bir qismi mahalliy musiqa asboblari bulsa, bir qismi maxalliy xususiyatga ega emas. Ayritom Peshtoqida tasvirlangan ud Old Osiyo, Eron, Xindiston va Sharqiy Turkistondagi musiqa asboblariga uxshab ketsa-da, uziga xos xususiyatlarga ega. Naysimon musiqa asbobi esa O'rta Osiyo musiqa asboblariga xos emas. Ular yunonlar bilan kirib kelgan. Aynan shunga o'xshash musiqa asboblari Afg'onistondagi ellinistik yodgorliklarda, chang esa Xindiston va Sharqiy Turkistonning xaykaltaroshlik yodgorliklarida uchraydi. Tadqiqotchilar Ayritom peshtoqida uchburchak shaklda tasvirlangan arfani (chertib chalinadigan musiqa asbobi) maxalliy musiqa asbobi deb hisoblaydilar. Bu musiqa asbobi hind arfalaridan tubdan farq qiladi⁶.

Ayritom peshtoqlarini shunga o'xshash haykaltaroshlik yodgorliklari bilan solishtirgan tadqiqotchilar shunday xulosaga keladilarki, bu yodgorlik dastlabki Kushon hukmdorlari davriga oid Matxura maktabi xaykaltaroshlik an'alariga ancha yaqin turadi. Bu davrda ushbu maktab yirik madaniy markaz bo'lib, Gandxar maktabidan farq qiluvchi mahalliy xususiyatlarga ega edi. Ammo, ko'p hollarda Matxura maktabi mahsulotlari ellinizm an'alariga yaqinligi bilan ajralib turadi⁷.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вязьмитина М.И. Раскопки на городише Айртам // Тр. ТАКЭ. -Т., 1945
2. Пугаченкова А., Ртвеладзе Э.В., Северная Бактрия - Тохаристан, Очерки истории и культуры. - Т.: Фан, 1990
3. Пугаченкова Г., Ремпель Л., История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины девятнадцатого века. - М.: Искусство, 1965
4. Турсунов С., Қобилов Э., Муртазов Б. ва бошқ., Сурхондарё тарихи.. – Т.,2004
5. Яхшиев А.Ж., Шимолий Бактриянинг тарихи ва маданияти. ҚДА. Т., 2002

⁵ Турсунов С., Қобилов Э., Муртазов Б. ва бошқ., Сурхондарё тарихи.. – Т.,2004.Б.53.

⁶ Яхшиев А.Ж., Шимолий Бактриянинг тарихи ва маданияти. ҚДА. Т., 2002., Б.55.

⁷ Турсунов С., Қобилов Э., Муртазов Б. ва бошқ., Сурхондарё тарихи.. – Т.,2004.Б.53.